RESEARCH CENTRE FOR ISLAMIC HISTORY,
ART AND CULTURE
**ИСЛОМ ТАРИХИ, САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИНИ
ТАДҚИҚ ЭТИШ МАРКАЗИ**

AL-BIRUNI INSTITUTE
OF ORIENTAL STUDIES
**АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ
ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ**

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists

CURRENT CONDITIONS OF THE PRESERVATION AND RESEARCH OF ANCIENT WRITTEN SOURCES

August 2022, Tashkent, Republic of Uzbekistan

ҚАДИМИЙ ЁЗМА МАНБАЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

мавзуида 2022 йил август ойида Тошкентда бўлиб ўтган ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги XVIII халқаро конференция мақолалар тўплами

Istanbul 2024



OIC | Organisation of Islamic Cooperation
IRCICA | Research Centre for Islamic History, Art and Culture
Alemdar Cd., No 15, Bâbıâli Girişi 34110 Cağaloğlu, İstanbul, Türkiye
Phone | +90 212 402 00 00 Fax +90 212 258 4365
ircica.org ircica@ircica.org
Certificate no. : 75350

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists Current Conditions of the Preservation and Research of Ancient Written Sources

Sources and Studies on the History of Islamic Civilisation Series; no. 57
© Copyright | IRCICA 2024
ISBN 978-92-9063-439-3
Istanbul 2024

Cataloguing in Publication Data

Ubaydulla Karimov International Conference of Young Orientalists on Current State of the Preservation and Research of Ancient Written Sources (18th: 2022: Tashkent, Uzbekistan)

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists: Current Conditions of the Preservation and Research of Ancient Written Sources, August 2022, Tashkent, Republic of Uzbekistan = Қадимий Ёзма Манбаларни Мухофаза Қилиш Ва Тадқиқ Этишнинг Долзарб Масалалари: мавзуида 2022 йил август ойида Тошкентда бўлиб ўтган ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги XVIII халқаро конференция мақолалар тўплами / edited by Mahmud Erol Kılıç and Bakhrom Abdukhalimov; prepared for publication by Ashirbek Muminov... [et al.].- Istanbul: Research Centre for Islamic History, Art and Culture, 2024.

480 p.: ill.; 24 cm.- (Sources and Studies on the History of Islamic Civilisation Series; No. 57).

Includes bibliographical references.

Text in Uzbek, Turkish and Russian; abstracts in English.

ISBN 978-92-9063-439-3

1. Manuscripts--Uzbekistan--Congresses. 2. Islamic civilization--Uzbekistan--Congresses. 3. Karimov, Ubaydulla, 1920-1997--Congresses. I. Kılıç, Mahmud Erol, 1961- II. Abdukhalimov, Bakhrom. III. Muminov, Ashirbek. IV. Title. V. Series.
091.09587--dc22

Edited by: Prof. Mahmud Erol Kılıç, Prof. Bakhrom Abdukhalimov
Prepared for Publication by: Prof. Surayyo Karimova, Akbar Idiev, Prof. Ashirbek Muminov, Yekta Zülfikar, Abdusattor Jumanazarov, Oysara Madalieva
Page Layout: Selahaddin Uygur
Printing and Binding: www.bilnet.net.tr

МУНДАРИЖА

КИРИШ
Проф. Д-р Маҳмуд Ерол Кылыч **13**

ЎЗБЕКИСТОНДА ШАРҚ ҚЎЛЁЗМАЛАРИНИ САҚЛАШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ
Проф. Абдуҳалимов Баҳром Абдураҳимович **15**

XULOSA 19

АННОТАЦИЯ 20

ОПЫТ РАБОТЫ НАСРАЛЛАХА АТ-ТАРАЗИ ПО КАТАЛОГИЗАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ ФОНДОВ В ЕГИПТЕ
Муминов Аширбек & Байыр Дидар **21**

DUBLET FONDI QO‘LYOZMALARI TAVSIFIGA DOIR
Faromarzi Fayzullo **26**

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ ТАРИХИЙ ҲУЖЖАТЛАРНИ КАТАЛОГЛАШТИРИШ
Султонов Ўктамбек Абдулғаниевич **32**

МУЗЕЙ КУТУБХОНА ФОНДЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ
Идиев Акбар **38**

ҚЎЛЁЗМА ДЕВОНЛАРНИ КАТАЛОГЛАШТИРИШ ПРИНЦИПЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ
Эшонова Салимахон Нишонбек қизи **43**

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯ МАРКАЗИДАГИ МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИГА ДОИР ЯНГИ МАНБАЛАР
Ғофуров Азимжон Шарипович **49**

ИСЛОМДА ИНСОН ҚАДРИ ВА МАҚОМИ
Усманов Маҳаммадсидиқ Абдуманнонович **53**

МОВАРОУННАҲР ҚОЗИЛИК ҲУЖЖАТЛАРИ: “АРХИВ”ДАН “КУТУБХОНА” КИТОБ МАТНЛАРИГА КЎЧИШИ
Муҳаммадаминов Саидакбар Абдурашидович **58**

ҚЎЛЁЗМА НУСХАЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ: АНЪАНАВИЙ УСЛУБЛАРДАН ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРГА ЎТИШ
Миркомилов Эркин & Умарова Муяссар **65**

АҲОЛИ ҚЎЛИДА САҚЛАНАЁТГАН НОЁБ МАНБАЛАРНИ СОТИБ ОЛИШ АМАЛИЁТИ: АСОС, БОСҚИЧ ВА МУАММОЛАР
Исламов Шарифжон & Шарипов Бекзоджон **72**

НОДИР ҚЎЛЁЗМА АСАРНИНГ РЕСТАВРАЦИЯ ЖАРАЁНИ: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ
Ходжаева Башорат Зафаржоновна **76**

НОЁБ ҚЎЛЁЗМА АСАР МУЛЯЖИ ҚАНДАЙ ТАЙЁРЛАНАДИ?
Аминов Санжар Сирожжиддин ўғли **80**

БУЮК БРИТАНИЯ ВА ФРАНЦИЯ КУТУБХОНАЛАРИДА САҚЛАНАЁТГАН ТУРКИЙ ҚЎЛЁЗМАЛАР ХУСУСИДА
Джуманиёзова Феруза Джуманазаровна **84**

SULTAN ŞÂHRUH’UN HAZİNE MÜHRÜ BASILAN ESERLER ÜZERİNDE BİR DEĞERLENDİRME
Makhmudjonova Gulzoda **88**

ДОМЛА ИКРОМНИНГ “РИСОЛАЙИ ФОРСИЯ ДАР БАЁНИ ВУЖУБИ САТРИ НИСО” АСАРИ ҲАҚИДА
Жамолова Дилноза Муйидиновна **94**

«ТАРЖУМОН АЛ-ҚУРЪОН» АСАРИНИНГ ҚЎЛЁЗМА НУСХАЛАРИ ТАВСИФИ
Мустафаев Достон Шухратович **99**

ДАГЕСТАН – ЖЕМЧУЖИНА АРАБСКОЙ РУКОПИСНОЙ ТРАДИЦИИ НА СЕВЕРНОМ КАВКАЗЕ
Исмаилова Алмаз Мусаевна **103**

“ФАТОВОИ ХОНИЯ” АСАРИНИНГ МУХТАСАРИ ҲАҚИДА
Мамашикуров Бекназар Бобомурадович **112**

ИБН СИНО – СЕВИЛЬЯ ВА ҚУРТУБА ШОҲИ
Маҳмудов Отабек Валижонович **117**

МУСТАМЛАКА ДАВРДА ПАХТАЧИЛИККА ОИД ҲУЖЖАТЛАР ТАСНИФИ
Мирзаев Авазбек Толибжонович **125**

ТАРИХИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТАДҚИҚИДА МЕТРОЛОГИЯНИНГ ЎРНИ
Нарзуллаева Ниҳола Абдурахмановна **128**

АБУЛҒОЗИХОННИНГ “ШАЖАРАЙИ ТУРК” АСАРИ ЕВРОПА ШАРҚШУНОСЛИГИДА ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА СИФАТИДА
Тошов Нурёғди Искандарович **131**

МУЛЛА ШАМСИДДИН ШАВҚИЙНИНГ “ТАРИХ-И ШАВҚИЙ” АСАРИ
Қўлдашев Шерали Темиралиевич **138**

“КАШФ АЗ-ЗУНУН” АСАРИДА ҚАЙД ЭТИЛГАН МАРКАЗИЙ ОСИЁЛИК ФАҚИҲЛАР ҲАҚИДА
Маҳкамова Дилёра Шавкатовна **143**

“МАВОҲИБИ АЛИЙЯ”НИНГ ФАКСИМИЛЕ НАШРИ ҲАҚИДА
Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич **150**

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ «ЛАТА’ИФ АЛ-АМСАЛ» РАШИДУДДИНА ВАТВАТА
Анварова Маърифат Нарзуллоевна **157**

“РАБИЪ АЛ-АБРОР” АСАРИНИНГ ТУРКИЯ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ ХУСУСИДА
Тўраев Лазиз Абдивали ўғли **164**

РОЛЬ КЛИНОПИСНЫХ ДОКУМЕНТОВ ИЗ КЮЛЬТЕПЕ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ДРЕВНЕЙ АНАТОЛИИ
Шалдарбекова Ажар Беккеновна **169**

TİMUR DÖNEMİ NEBATÎ NAKIŞLARI: SEMERKAND TUMAN AKA MAKBERESİ VE BURSA YEŞİL CAMİİ
Akyüz Merve **175**

САЪДИЙ “ГУЛИСТОН”ИНИНГ ТУРКИЙ ТИЛДАГИ ЯНГИ ТАРЖИМАСИ (XIV АСР ОХИРИ – XV АСР БОШИ)
Эркинов Афтондил Садирханович **179**

FRANSUZ SHARQSHUNOSLIK MAKTABLARI TARIXIDAN
Ostonov Jahongir **184**

ТОЖИК ОЛИМЛАРИНИНГ МУҲАММАД ҲАКИМХОННИНГ “МУНТАХАБ АТ-ТАВОРИХ” АСАРИНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА ТАДҚИҚОТЛАРИ
Абдукаримов Джамолиддин Аҳмадалиевич **189**

КУШОН ИМПЕРИЯСИ ВА ХАН, ВЕЙ СУЛОЛАЛАРИ МУНОСАБАТЛАРИ
Азимов Хуршид Хакимович **194**

СЕРГЕЙ ЮРЕНЕВ МЕРОСИДА БУХОРО ТАРИХИ МАВЗУСИ
Болтаев Аъзам Ҳомидович **198**

АЛ-БАЛОЗУРИЙНИНГ “ФУТУҲ АЛ-БУЛДОН” АСАРИДА ШОШ ФАТҲИНИНГ ЁРИТИЛИШИ
Алимов Зуҳриддин Исамутдинович **202**

«ЖАҲОНГИРНОМА» АСАРИДА БОБУРИЙЛАР ДАВЛАТИ ВА МОВАРОУННАҲР МУНОСАБАТЛАРИ
Йўлдашев Ботир Ўролович **207**

ВОСТОЧНЫЕ НАРОДЫ НА СТРАНИЦАХ «ПОВЕСТИ ВРЕМЕННЫХ ЛЕТ»
Пилипчук Ярослав Валентинович **210**

АМИР ТЕМУР ШАХСИГА ОИД ТАРИХИЙ ТАСАВВУРЛАР ТАҲЛИЛИ
Султонов Комилжон Аслонович **220**

УБАЙДУЛЛАХОННИНГ ШАЙБОНИЙХОН ҲАРБИЙ ЮРИШЛАРИДАГИ ИШТИРОКИ
Файзуллаев Фаррух Эшқабулович **227**

“ТАФҲИМ” АСАРИДА КЕЛТИРИЛГАН ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТЛАР
Куранбаева Умида Султанназаровна **232**

АМУДАРЁНИНГ ИРМОҚЛАРИ ВА ЧОРРАҲАЛАРИ “БОБУРНОМА”ДА
Шарипов Азизжон Азимович **239**

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ «БОЛЬШОЙ ИГРЫ»: ТУРКЕСТАН В РАБОТАХ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ АВТОРОВ
Абдурасулов Хушнуд Абдуллаевич **253**

“AL-OSOR AL-BOQIYA” ASARINING O‘RGANILISHI MUAMMOLARI
Usmonov Husan Toshtemirovich **261**

РОЛЬ УБАЙДУЛЛА-ХАНА В РАЗВИТИИ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ШЕЙБАНИДАМИ И ОСМАНАМИ
Разаков Фаррух Абдумўминович **267**

ФИТРАТНИНГ “ДЕВОНУ ЛУҒОТИ-Т-ТУРК” ГА ОИД МАНБАШУОСЛИК ВА МАТНШУНОСЛИК ТАДҚИҚОТЛАРИ
Сатторова Зилола Исмаиловна **274**

“АМУДАРЁ БЎЛИМИ ДЕВОНХОНАСИ” ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЛКА СОЛИҚ ТИЗИМИ
Абдухалилова Азиза Эркиновна **281**

BOYMIRZA HAYITNING “TURKISTON: RUSIYA VA XITOY ORALIG‘IDA” KITOBI MUHIM MANBA SIFATIDA
Tojiyev Dostonjon Beknazar o‘g‘li **287**

СУФИЙСКИЕ И КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В “ДИВАНЕ” ДЖАХАНШАХА ХАГИГИ КАРАКОЮНЛУ
Гаджиева Кёнюль Гамидовна **293**

НАВОИЙНИНГ XVI АСРГА ОИД “ТЕРМА ДЕВОН”ЛАРИ ТАРКИБИ: ҒАЗАЛДАН БОШҚА ЖАНРЛАРИ ТАДҚИҚИ
Мадалиева Ойсара Рустамовна **298**

XVI-XVII АСР МАНБАЛАРИДА МУҲАММАД ШАЙБОНИЙХОН АДАБИЙ КЕЧАЛАРИ
Қораев Шерхон Пўлатханович **323**

“MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALIDAGI NAZMIY ASARLARNING GRAFIK SHAKLLANTIRILISHI
Soatova Gulzoda Nurmamat qizi **332**

ДЎСТМУҲАММАД ФИРОҚИЙНИНГ ТУРКИЙ ДЕВОНИГА ОИД АЙРИМ МУХАММАСЛАР ХУСУСИДА
Зокирова Дурдона Собиржон қизи **339**

“ҚАЛОИДУ-Л-АДАБ”ДА ШАРҚОНА АХЛОҚНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ
Шерова Мавзуна Маъмуровна **344**

КУЛ ТИГИН ВА БИЛГА ХОҚОН БИТИГЛАРИДА КЕЧГАН ХОҚОН СЎЗИНИНГ ЧОҒИШТИРМА ТАҲЛИЛИ
Содиқов Қосимжон Позилович **350**

МОНИЙ ХАТИНИНГ ТУРКИЙ ТИЛЛИ МАТНЛАРГА МОСЛАШУВИ МАСАЛАСИ
Алимухамедов Рихситилла Абдурашидович **354**

ЧИНГИЗ АЙТМАТОВНИНГ ТУРКИЙ ТИЛЛАР ҲАҚИДА ЛИНГВИСТИК ВАСИЯТИ
Каримов Бахтиёр Раҳманович **360**

АЛИ САФИ КОШИФИЙ ҲАРАВИЙ – МОҲИР ХАТТОТ ВА ХОС КОТИБ (“ШАРҲ-И ФУСУС АЛ-ҲИКАМ” АСАРИНИНГ НУСХАСИ МИСОЛИДА)
Умурзоқов Баҳриддин Сафарович **365**

ЗАМОНАВИЙ АРАБ ВА ЎЗБЕК ҲИКОЯЛАРИДА “ЮСУФНОМА” МАВЗУСИ
Мухиддинова Дилафруз Зуҳриддиновна **371**

ЎРТА АСР МУСУЛМОН ОЛИМЛАРИНИНГ МЕРОСИ ҚИЁСИЙ ДИНШУНОСЛИК ОБЪЕКТИ СИФАТИДА
Абдупаттаев Мумин Мирзо Муроджон ўғли **376**

“МИЪЁР АТ-ТАДАЙЙУН” АСАРИДА ИЙМОН МЕЗОНЛАРИ ВА ДИНИЙ НИЗОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСЛУБЛАРИ
Наимов Исмат Нусратиллоевич **385**

ИСЛОМДА БИЛИМЛАР ТРАНСМИССИЯСИ: ЎЗБЕКИСТОНДА ДИНИЙ АДАБИЁТ ВА ДИН ТАЪЛИМИ ДАРСЛИКЛАРИ
Халилова Зилола Эркиновна **395**

«ШАРҲ АТ-ТАЪАРРУФ» ҚЎЛЁЗМАЛАРИ: ХОЖАГОН-НАҚШБАНДИЯ РИВОЖИДАГИ РОЛИ
Раҳимов Комилжон Раҳматович **401**

ШАРҚ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРИНИ АСРАШГА ОИД МУЛОҲАЗАЛАР
Қориев Одилжон Аҳмаджонович **413**

НИЗОМИЙ ГАНЖАВИЙНИНГ “ХАМСА” ДОСТОНИГА ИШЛАНГАН МИНИАТЮРАЛАРДА СЮЖЕТ ВА ОБРАЗЛАР БАДИИЙ ТАЛҚИНИ
Рахматуллаева Асалхон Гайратовна **418**

АБРИ БАҲОР САНЪАТИНИНГ ҚАЙТА УЙҒОНИШИ (Муқовасозлик санъати мисолида)
Саидова Нодира Ғанишер қизи **426**

АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ ХАЗИНАСИДАГИ МЎЪТАБАР ҚЎЛЁЗМАЛАР ВА НАФИС МЎЪЖАЗ РАСМЛАРНИ ЎРГАНИШ
Мадраимов Абдумажид Абдураимович **432**

ОТЧЕТЫ ДОМОВ-МУЗЕЕВ ТАШКЕНТА КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК
Муродов Абдували Мухтор угли **439**

ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ИСБОТ АЛ-‘ИЛАЛ” АСАРИДАГИ ФИҚҲИЙ ҚАРАШЛАРИ ТАҲЛИЛИ447
Усмонов Иброҳим Собирович **447**

АВТОРЛАР 457

ИЛЛЮСТРАЦИЯЛАР 461

BOYMIRZA HAYIT'S *TURKESTAN: BETWEEN RUSSIA AND CHINA* AS AN IMPORTANT SOURCE

BOYMIRZA HAYITNING "TURKISTON: RUSIYA VA XITOY ORALIG'IDA" KITOBI MUHIM MANBA SIFATIDA

Tojiyev Dostonjon Beknazar o'g'li
Tojiyev Dostonjon Beknazar o'g'li

This article describes the "dark days" of Turkestan in the past, the Russian invasion, followed by the various policies of the former Soviet government led by the Communist Party. Dr. Boymirza Hayit's work *Turkestan: Between Russia and China* gives historical information about these events. The authentic historical book is a great source for studying difficult times in our national history. This work contains important documents and archival data reflecting the life of West Turkestan and East Turkestan in the 20th century under Russian and Chinese rule.

Turkiston xalqlarining istiqlol uchun kurashlari tarixini o'rganish vazifasi mamlakat tarixshunosligida faqatgina mustaqillik davridagina kun tartibidan joy oldi. Tariximizning yangi, ilgari biz bilmagan yoki noto'g'ri tasavvur etgan sahifalarini tiklash, ajdodlarimizning o'z erki va Vatan ozodligi uchun olib borgan istiqlol yo'lidagi kurashlari haqidagi tarixiy haqiqatni anglab yetish imkoniyatiga biz faqatgina istiqlol sharoitida ega bo'ldik. O'zbekistonning davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgunga qadar hukm surgan mustabid tuzum sharoitida mustaqillik, Vatan ozodligi, millat erki haqidagi tushunchalar nafaqat tarix fani, balki jamiyat tafakkuri uchun ham "begona" tushunchaga aylantirilgan bo'lib, bu haqida so'zlash yoxud fikr bildirish mutlaqo mumkin emas, aniqrog'i fojiali yakun eshigi edi.

Shu sababli ham Sobiq Ittifoq davrida Vatan istiqloli, millat ozodligi, mustaqillik uchun Turkiston xalqlari olib borgan kurash voqealarini haqqoniy aks ettiruvchi har qanday manba jamoatchilik e'tiboridan chetlatildi. Ayniqsa, Turkistonda kuch bilan o'rnatilgan Sovet hokimiyatining zo'ravonligiga qarshi 1918–1934 yillarda olib borilgan kurashlar haqidagi tarixiy haqiqatni oshkor etuvchi manbalar mutlaqo yashirildi, kezi kelganda, hech ikkilanmay soxtalashtirildi va sovet mafkurachilarining "bosmachilik" haqidagi ertaklarini "asoslash" [1:68] uchun "tirkaldi".

Lekin o'z vatanida yashirilgan, qoralangan tarixiy haqiqat xorijdan o'rin izladi. XX asrning 20-yillari oxiri 30-yillari boshidayoq xorijiy tarixshunoslikda, xususan, turk tarixshunosligida Turkiston tarixining juda ko'p masalalari qatori ajdodlarimizning ozodlik uchun olib borgan kurashlari ham o'zining haqqoniy talqinini ola boshlagan edi, chunki Turkistonda zo'rlik bilan o'rnatilgan mustabid tuzum quvg'inlaridan chet elga qochib jon saqlashga majbur bo'lgan M.Cho'qayev [2:5], Ahmad Zakiy Validiy [3:389], Alixonto'ra Sog'uniy [4], Yusuf Akjurog'lu [5:82], Ali Bodomchi [6:95],

Temirog'lu [7:107] kabi muhojirlar o'z xotiralarini xorijda, ilk bor aynan turk va nemis tillarida yozib, e'lon qildilar.

Turkiston fojealarining jonli guvohi, ishtirokchisi bo'lgan mualliflarning xotiralari, aniq ko'rsatmalari turk tarixshunosligida Turkistondagi 1918–1934 yillarda mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar haqida to'g'ri tasavvurlarning shakllanishida juda katta rol o'ynadi.

Jahon tarixshunosligida hozirgacha Turkiston istiqloli uchun 1918–1934 yillarda olib borilgan kurash tarixiga bag'ishlangan eng yirik tadqiqotlar aynan turk va nemis tillarida yaratilgandir. Dr. Boymirza Hayit umrining asosiy qismini Ona-Vatan tarixini o'rganish, tadqiq etish va shu asosda haqiqiy tarixni ommaga yetkazishni maqsad qilgan edi. Turk tilida chop etilgan tadqiqotlarida Turkiston xalqlarining 1917-yildan to 1930-yillar o'rtasiga qadar mustabid sho'rolar hokimiyatiga qarshi kurashlarining barcha voqealari davriy izchillikda bayon etiladi. Muallifning bu yo'nalishda qariyb 40 yil davomidagi izlanishlari, dunyoning turli mamlakatlaridagi arxiv va kutubxona manbalarini, xususan, Myunxendagi Bavariya Davlat kutubxonasi, Kyolndagi Sharqshunoslik fanlari federal instituti kutubxonasi, Buyuk Britaniya milliy kutubxonasi (London), AQSH kongressi kutubxonasi (Vashington), Hind ofisi kutubxonasi (London), Guver nomidagi inqilob va urush instituti kutubxonasi, Nyu-York ommaviy kutubxonasi, Kyoln shahar va universitet kutubxonasi, Istanbul universiteti kutubxonasi materiallarini atroflicha o'rganish asosida yaratilgan bu asarida bizning vatan tarixshunosligi uchun muhim yangilik bo'lgan juda ko'p ma'lumotlar bor [8]. Eng muhimi tadqiqot ishlarida o'sha davr voqealarining bevosita guvohi, ishtirokchisi bo'lgan zamondoshlarning xotira va esdaliklaridan keng foydalanilgan, zero, o'sha davrda muhojirlikda yashagan vatandoshlarimizning bu esdaliklari ular yashagan mamlakat arxiv va kutubxonalari mulkiga aylangan [9].

Ona Vatanimiz – bir butun ulug' Turkistonimiz tarixi, jumladan O'zbekistonimiz tarixi yurtimizda maxsus, to'la holatda bitilgan emas edi. Germaniyada yashab, samarali ijod etgan, butun umrini el-yurt ozodligi yo'lida fido etgan ulug' muhojir Dr. Boymirza Hayitning eng yirik asarlaridan bo'lmish "Turkiston: Rusiya bilan Xitoy oralig'ida..." kitobi tarixiy haqiqatga sadoqat, ilmiy xolislik, Ona yurtga buyuk muhabbatning shohididir. Kitob o'quvchilar, talabalar, Vatanni sevgan keksa-yu yosh qalblar uchun zarur darslik hamdir. Bosqinchilik xususida Vatanda bitilgan qolgan asarlar esa qo'shimcha adabiyot vazifasini o'tashi mumkin.

"Turkiston, Rusiya va Xitoy oralig'ida: XVII–XX asrlarda ruslar va xitoyliklarning istilolari davrida Turkiston Milliy davlatlari va milliy mujodilalari tarixi" mavzuli asar, birinchi daf'a nemis tilida Amsterdam shahrida 1971-yilda nashr etilgan edi. 1975-yilda turk tilida nashr etildi. Ushbu asar, Yevropa, Amerika va sobiq Sovet Ittifoqida ko'p tanqidlarni ko'rdi. Sovet Ittifoqida ushbu asarga qarshi ham ko'p qarshi yozishlar bo'lgan. Sovet-kommunizm mafkurasi, buning ichida sovet tarixshunosligi, Dr. Boymirza Hayitning fikrlarini oldingi asarlarini "hazm qila olmagani" kabi, bu asarga ham xavfli tus bergan. Ushbu asarni Sovet Ittifoqida o'qimoq va o'qitmoq berilajak jazolarning bir sababchisi bo'lgan edi.

Hozirgacha Turkiston miliy kurashlarining Rus va Xitoy istilosi davri tarixini aks ettirgan yirik tadqiqotlar nisbatan kamligini inobatga olgan Dr. Boymirza Hayit bu

borada dastlabki qadamni tashlashga jur'at qiladi. Turkistonning XVII–XX asrlarga oid mukammal tarixi koʻpgina tadqiqotchilar tomonidan yillarcha izlanishlar natijasidagina yozilajagini hisobga olingan holda bu asar "Turkiston Rusiya bilan Xitoy oralig'ida. Rus va Xitoy istilosi davrida Turkiston Milliy davlatlari hamda milliy ozodlik kurashi tarixi" deb nomlanadi.

Shu haqiqatni doim koʻz oldimizda tutishimiz kerakki, dunyoning turli yerlarida tarqoq holda, koʻp miqdorda qoʻlyozmalar va boshqa manbalar mavjud boʻlib, ularning baholanishi tarix ilmi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham ushbu kitob Turkiston tarixi masalalarini oʻrganishda faqat bir dastlabki bosqichni tashkil etadi.

Turkiston tarixining ba'zi masalalariga bagʻishlangan juda koʻp kitob va maqolalarning aksariyati bir-biriga mos emas edi. Bu esa haqiqatni tushunishni qiyinlashtirardi. Shu bois, muallif, imkon qadar tarixiy jarayonga oid tushunchalarni oʻzaro bir-biriga uygʻunlashgan holatini berishga harakat qilgan.

Muallif bir kamchiligi sifatida xitoy tilini bilmaganligini aytib oʻtgan va shu sababli Sharqiy Turkiston tarixi masalalariga oid ishlarida kamchilik mavjudligini ham yashirmagan. Hatto Yevropada mavjud boʻlgan Sharqiy Turkistonga oid xitoy tilidagi manbalardan foydalanish imkoni boʻlmagan. Shunga qaramay, bu kitobda boshqa manbalardan keng foydalanish hisobiga Sharqiy Turkistonni e'tibordan chetda qoldirmagan. Chunki Turkistonning bu qismiga yangi tarixga oid ilmiy ishlarda juda kam e'tibor berilganligi barchaga ayondir.

Birmuncha mulohazalardan keyin, xolis boʻlish maqsadida "Turkiston" atamasi ma'qul koʻrilgan. Bu atamadan, hammasi Markaziy Osiyoda joylashgan, lekin har biri alohida olganda Markaziy Osiyo hisoblanmaydigan oʻsha paytdagi sobiq Sovet Ittifoqining Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston, Tojikiston va Oʻzbekiston Sovet Sotsialistik Respublikalari deyilgan oʻlkalar bilan Xitoy Xalq Respublikasidagi Sinszyan-Uygʻur muxtor viloyati birgalikda tushuniladi. Rus va Xitoy rasmiy mahkamalari hukmronlik yillarida Turkiston nomini qoʻllashni man etdilar. Chunki bu borada ularning siyosiy mulohazalari bor edi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib Yevropa va Amerika Qoʻshma Shtatlari adabiyotlarida ham "Turkiston" atamasi oʻrniga Sovet manbalaridan olingan "Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston", "Sharqiy Turkiston" oʻrniga xitoyliklardan oʻtgan "Sinszyan" atamasining qoʻllanishi koʻzga tashlanar edi [10].

Moskva boshlagan va "tarix xoin"lari singdirishga uringan "Oʻrta Osiyoning Rusiyaga qoʻshib olinishi" tushunchasini Dr. Boymirza Hayit tarixiy haqiqat tahlili asosida oʻzining tadqiqot ishlarida qoʻlladi. Chor askarlari bu tabarruk zaminga yaxshi niyat bilan kelgan emas. Ular qoʻlida qilich, miltiq va zambarak, koʻnglida erkimizga, madaniyatimizga nafrat bilan, boylik orttirish nafsi quturgan bir holda bostirib kelgan edilar. Haqiqiy vatanparvar ota-bobolarimiz dushmanga qarshi janglarda mardonavor yurtni himoya etib jon berganlar.

Oʻz erki, dini, odati va yerining egasi boʻlamiz degan umidda qoʻliga qurol olganlarning nomi "bosmachi" deyildi. Afsuski, bu davrda sopimizni oʻzimizdan chiqardilar. Bizning (oʻsha paytda hali kelajak avlod) mustaqilligimiz uchun

kurashgan haqiqiy mujohidlarni, asl bosmachi – xo'jayinlarga ergashib, "bosmachi" deya atay boshlaganimizni ham ushbu kitob tarixiy hujjatlar asosida ko'rsatib bergan.

Qisqacha aytganda, bu asar o'z zamonasining noyob manbasidir. Unda Markaziy Osiyoning Amir Temur va Temuriylar davridan tortib sobiq Ittifoqning qulashiga qadar bo'lgan yirik davri qamrab olingan. Keltirilgan ma'lumotlar ham o'nlab manbalarni o'rganish, yillar davomida to'plangan ma'lumotlar tahlili, jahon arxivlarining noyob qo'lyozmalari tadqiqi asosida kitobga jamlangan.

Kitob o'n uch bo'limdan iboratdir. Ilk bo'limda birlashgan imperatorlik (Temuriylar davlati)dan bir qator mayda davlatlarga parchalanib ketgan Turkiston haqida fikr yuritilib, bu davr haqida, o'sha vaqtdagi xalqlar tarixi, Sharqiy Turkistonning holati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kitobning ikkinchi bo'limida Turkistonning mustaqil xonliklarga (Buxoro, Xiva va Qo'qon; hatto qisqa yashagan Toshkent xonligi ham) bo'linib ketishi bayoni keltirilgan.

Uchinchi bo'lim Turkistonga rus hujumining boshlanishi tarixi haqidadir. Bu qismda ruslarning Turkiston bo'ylab amalga oshirgan josuslik ishlari, savdo-sotiqlari, siyosiy munosabatlari, rus istehkomlarining barpo etilishi va qozoq juzlarini egallash jarayonlari batafsil keltirib o'tiladi.

To'rtinchi bo'lim Turkistonning eng og'ir damlari – Chor hukumatining to'rt bosqichli agressiyasi davri haqidadir. Bu bo'limda ruslar tomonidan Buxoro amirligi va Xiva xonligining protektoratga aylantirilishi, Qo'qon xonligining bosib olinishi hamda davlat sifatida tugatilishi, Go'ktepada butkul tor-mor keltirilgan turkmanlar, Pomirga yurish, chegaralar borasida rus-ingliz diplomatiyasiga oid masalalar muhim faktlar asosida bayon qilingan.

Beshinchi bo'lim Xitoy tomonidan Sharqiy Turkistonning istilo etilishi va bu borada Chin yurti amalga oshirgan turli harakatlar, uyg'ur xalqining ozodlik kurashlariga to'xtalib o'tilgan.

Oltinchi bo'lim Turkistonda o'rnatilgan rus hokimyatining mintaqada olib borgan siyosati xususida bo'lib, bunda rus mustamlakachilik siyosatini bor bo'yicha ko'rsatib berishga harakat qilingan.

Yetinchi bo'lim oq podshoga qarshi Turkistonda amalga oshirilgan milliy-ozodlik harakatlari xususidadir. Bunda Sulton Kenesari qo'zg'oloni, 1898-yildagi Dukchi Eshon boshchiligidagi Andijon qo'zg'oloni, 1916-yilgi Turkistonni qamragan milliy-ozodlik harakatlari bor bo'yoqlarida bayon qilingan.

Sakkizinchi bo'limdan boshlab eng asosiy davr voqealari qamrab olinishni boshlaydi. 1917-yilgi fevral va oktabr inqiloblari, jadidlar harakati, favral inqilobi ta'sirida o'lkada milliy davlatchilik tomon ilk odimlar, bolsheviklarning ularni bo'g'ib tashlashga urinishi hamda alal-oqibat kommunistik partiyaning iqtidorga kelishi masalalari keng yoritilgan.

To'qqizinchi bo'lim 1917–1924-yillardagi Turkiston milliy davlatlari va ularning qismati to'g'risidadir. Bunda Qo'qondagi Turkiston muxtoriyati, Alash o'rda, Buxoro va Xivada tuzilgan mustaqil respublikalar hamda ularning tugatilishi tarixi bayoni keltirilgan.

Oʻninchi boʻlim eng ogʻriqli davr – Turkistondagi 1918-1934-yillardagi milliy-ozodlik kurashi, qoʻrboshilar faoliyati, ularga qarshi Sovet hukumatining olib borgan harbiy harakatlari haqida toʻxtalib oʻtilgan.

Oʻn birinchi boʻlimda Sharqiy Turkistondagi Oʻrta Osiyodan qolishmagan ogʻir ahvolning bayoni berilgan. Bunda 1934-yildan keyingi davrda xitoyliklar, ruslar va turkistonliklar oʻrtasida Sharqiy Turkistonni tashkil qilish masalasidagi ixtiloflar bayoni keltirilgan.

Oʻn ikkinchi boʻlim esa 1924-yilda Sovet hukumati tomonidan tashkil qilingan "Milliy davlatlar" haqidadir. Bu boʻlim butun boshli bir hudud, bir elat boʻlgan Turkiston oʻlkasini majburiy tarzda, "Milliy hududiy chegaralanish" niqobi ostida 5 ta respublikalarga ajratib yuborilishi haqidadir. Bunda Turkistondagi shoʻro davlatlarining gʻayrimilliy xarakterlari ham soxta boʻlmagan ishonarli maʼlumotlar bilan boyitilgan tarzda muallif tomonidan bayon qilingan.

Kitobning soʻnggi boʻlimi sobiq Sovet davlatining qulashi va undan soʻng istiqlol ila oʻz yoʻlini qurayotgan ozod Turkiston haqidagi xulosalardan iborat.

Umuman olganda, Dr. Boymirza Hayitning "Turkiston: Rusiya va Xitoy oraligʻida" asaridan olingan taassurotlar haqida juda koʻp yozish mumkin. Shu oʻrinda yana bir narsa diqqatga molik, chet elda yashashiga qaramasdan, olim oʻz ishida rus-shoʻro manbalaridan keng foydalanishga harakat qilgan hamda munozarali oʻrinlarda xolis turishga intilgan.

Mustaqillik sharofati ila ushbu asarni oʻz tilimizda nashr etmoq uchun yoʻl ochilgan edi. Ushbu kitob millatimizning fojialari va intilishlarining bir ifodasidir.

Ushbu kitob oʻz vaqtida Turkiya Kultur Vaqfining tarix tadqiqotlari armugʻonini va Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining Choʻlpon mukofotini qoʻlga kiritgan edi. Ushbu asarning oʻzbekchasini istiqlolning ilk yillarida nashr etishga bir qator atoqli shaxslar, jumladan, Baxtiyor Isabek – Oʻrdabekli, Mirzo Kenjabek hamda "Ochun" jamiyati tashabbus koʻrsatishgan edi. Hattoki Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyotda ushbu kitob 20 ming adadda bosish uchun tayyorlangan edi. Afsuski, bir qator hodisalar sabab ushbu kitob tarjima-qoʻlyozma holatida bugunga qadar qolib ketgan.

Bugungi kunda tariximizning muhim davriga oid qimmatli maʼlumotlar jamlangan Dr. Boymirza Hayitning "Turkiston: Rusiya va Xitoy oraligʻida" asari "Yangi asr avlodi" nashriyot matbaa markazi tomonidan nashrga tayyorlanmoqda. Oʻz sohasining fidoyilari boʻlgan Naim Karimov (1932–2023), Bahrom Irzayev, Qahramon Rajabov, Nurali Qobul va Qozoqboy Yoʻldosh kabi olimlar bu asar xususida qimmatli fikrlarini berib oʻtganlar.

Mustaqillik tufayli nafaqat respublikadagi, balki xorijdagi manbalardan ham foydalanish huquqiga ega boʻlgan Oʻzbekiston tarixchilari xorijiy tarixshunoslik tahliliga jiddiy kirishganlar. Ammo xorijdagi manbalar hali chuqur va bevosita oʻrganilmadi. Ayni paytda xorijlik tarixchilar ham Oʻzbekiston arxivlaridagi boy manbalardan bebahra qolmoqdalar. Bu holat Oʻzbekiston tarixchilarining xorijlik tarixchilar bilan ilmiy hamkorlikni yoʻlga qoʻyishlarini, tariximizning oʻqilmagan sahifalarini jahon tarixshunosligi doirasida tiklanishini taqozo qiladi.

Shuni alohida koʻrsatish lozimki, mazkur davr tarixshunosligining rivojlanishida turkistonlik muhojirlarning roli katta boʻldi. Mustafo Choʻqay, Abdulla Rajab

Boysun, Ahmad Zakiy Validiy, Tohir Chig'atoy, Boymirza Hayit, Shahobiddin Yassaviy, Shermuhammadbek kabi muhojirlarning xotiralari, qimmatli ko'rsatmalari turk tarixshunosligida Turkistondagi 1917-1924-yillar voqealarini o'rganishda katta rol o'ynaydi. Bu borada xorijiy vatandoshlar, xorijiy davlatlarda Vatanimiz tarixiga oid adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarni tarixchilarimizdan Q.Rajabov, Sh.Hayitov, S.Shodmonova, E.Nuriddinov kabilar so'nggi paytlarda o'zlarining ilmiy tadqiqotlari asosida kengroq, xalqchil tarzda yoritib berdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳайит Боймирза. Ёруғ кунлар орзусида. Тошкент: Жаҳон адабиёти журнали. 1998 йил, 11-сон.

Chokay M. M. Dekabr hatiralari // Yash Turkistan. 1933. № 39.

3. Zeki Velidi. Bugunki Turkustan (Turkeli) ve yakin tarihi. Istanbul. 1981.

4. Соғуний, Алихонтўра. Туркистон қайғуси. Тошкент: Шарқ, 2020.

5. Akcuraoglu Yusuf [Yusuf Akçura]. "Tukculuk". In Türk Yili. 1928. Ankara: Turk Ocagi, 1928.

6. Ali Bademchi. 1917–1934. Turkistan Milli istiklal hareketi ve Enver Pasa. Kurbashiler. Istanbul. 1975.

7. Temirogli. Turkistanda inkilab Devri // Yash Turkistan. 1931. № 25.

8. Босмачилик: ҳақиқат ва уйдирма // Шарқ юлдузи журнали. Тошкент, 1991, 3-сон.

9. Истиқлолимизнинг тарихий илдизлари. Давра суҳбати // Шарқ юлдузи журнали. Тошкент, 1995 йил, 11-12 сонлар.

10. Hayit B. Basmatschi. Nationalier Kampf Turkestan in der Jahren 1917 bis 1934, Koeln, 1992.